



YALPI DAVLAT QARZI - MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM INDIKATORI SIFATIDA

GROSS PUBLIC DEBT AS A KEY INDICATOR OF FINANCIAL SECURITY

**¹Ismailova Nasiba
Komildjanovna**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy
texnologiyalar" kafedrası. **G-mail:** ismailovank1275@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqola moliyaviy xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, moliyaviy xavfsizlik indikatorlarini va makrodarajadagi moliyaviy manfaatlarning himoyalanganlik darajasini tahlil qilishga bag'ishlangan hamda davlat qarzdorligining hozirgi holati, ichki va tashqi qarzlarning moliyaviy xavfsizlikka ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy xavfsizlik tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalari yoritilgan.

Eng. - This article is devoted to analyzing the socio-economic essence of financial security, its key indicators, and the level of protection of financial interests at the macroeconomic level and examines the current state of public debt, including both internal and external borrowings and their impact on financial security. Furthermore, the article highlights existing challenges in Uzbekistan's financial security system and discusses possible solutions to address these issues.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, budget defitsiti, oltin-valyuta zahiralari, inflyatsiya darajasi, tashqi qarz.*
❖ *economic stability, economic security, financial security, budget deficit, gold and foreign exchange reserves, inflation rate, external debt.*

Kirish.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasidan kelib chiqib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borish maqsad qilingan bo'lib, o'rta va uzoq muddatdagi asosiy maqsadlar belgilangan [1]. Jumladan, konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini YaIMga nisbatan 3 foizlik target ko'rsatkichi doirasida ushlab turish uchun daromadlar bazasini mustahkamlash va budget xarajatlari samaradorligini oshirish hamda bu orqali makroiqtisodiy barqarorlik va budget intizomini ta'minlash, o'rta muddatga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat

qarzining YaIMga nisbatini 50 foizdan oshmasligini ta'minlash qat'iy belgilab qo'yildi.

Davlat iqtisodiy xavfsizligi — bu davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Davlat iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsad va vazifalari milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi xavf-xatarlardan, xususan, iqtisodiy sanksiyalar, moliyaviy inqirozlar va korrupsiya kabi omillardan himoya qilish, aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladigan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotning jahon bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlashdan

iborat. Moliyaviy xavfsizlik – bu iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy elementi bo'lib, uning ahamiyati davlat moliya tizimining tutgan o'rni va mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatadigan bevosita ta'siri bilan belgilanadi. Moliyaviy xavfsizlikning asosiy indikatorlaridan biri – bu davlat qarzining maqbul me'yorlarda ushlab turilishi va uning barqaror boshqarilishi hisoblanadi.

Davlat qarzi va moliyaviy xavfsizlik o'zaro chambarchas bog'liqdir, chunki davlat qarzi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Moliyaviy xavfsizlik davlat va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Davlat qarzining haddan tashqari oshib ketishi bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Jumladan, budjet taqchilligini ortishi, xorijiy investorlarga bog'liqlikning kuchayishi, investitsiyaviy jozibadorlikning pasayishi, milliy valyutaning beqarorligi va inflyatsiya xavfining oshishi, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarini to'liq bajarish imkoniyatlarining kamayishi moliyaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar hisoblanadi.

Shu sababli moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat qarzini samarali boshqarish, qarz yukining optimal darajasini saqlash va budjet barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy xavfsizlik tushunchasi alohida kategoriya sifatida rus olimlari tomonidan to'liqroq yoritib berilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, V.P.Oxapkin fikriga ko'ra, moliyaviy xavfsizlik davlat iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy qism bo'lib, u pul muomalasi barqarorligini ta'minlash orqali umumiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Pul – tovar qiymatining umumiy ekvivalenti sifatida – iqtisodiyotni izchil rivojlantirish yoki beqarorlashtirish quvvatiga ega bo'lgan

omildir. Mamlakat bank tizimi esa pul va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning markazi bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [4].

Taniqli fransuz iqtisodchisi, 2014-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori J.Tirol mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda, milliy va jahon bozorlarida joriy moliya arxitekturasining muammosi sifatida moliya institutlarining likvidliligi va depozitlarini sug'urta qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlaydi [5].

Professor Gari M. Shiffman moliyaviy xavfsizlikni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan moliyaviy texnologiyalar sohasi bilan bog'lab, bu jarayon AQSH iqtisodiyotining milliy xavfsizlik tizimiga bir vaqtning o'zida ham tahdid, ham yangi imkoniyatlar manbai sifatida qaralayotganini ta'kidlaydi [6].

G.S. Vechkanov moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasida fikr yuritir ekan, uning asosiy omillaridan biri sifatida soliqlarni ko'rsatadi [7]. Ushbu olimning fikriga ko'ra, soliqlar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar manbai hisoblanadi.

E.V. Karanina esa, davlat moliyaviy xavfsizligini davlat milliy manfaatlarini hisobga olgan holda mustaqil moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati deb ta'riflaydi [8].

Rossiyalik olim S.V. Zenchenkning ta'kidlashicha, resurslarning notekis taqsimlanishi va xalqaro moliyaviy oqimlar harakatining kuchayishi milliy iqtisodiyotning moliyaviy xavfsizlik tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [9].

E.N.Kush esa iqtisodiyotning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar turli xil mezonlar asosida, baholash orqali aniqlanadi, deb ta'kidlaydi va iqtisodiyotdagi korxonalar faoliyatini tahlil qilish orqali iqtisodiy xavfsizlik tizimini o'rganadi [10].


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy mushohada, analiz va sintez usullari qo'llanildi hamda iqtisodchi olimlarning mamlakat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari ilmiy abstraksiyalash metodi yordamida o'rganildi. Shuningdek, Xalqaro valyuta fondi, Jahon bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida tavsiya etilgan mamlakat moliyaviy xavfsizligini baholash indikatorlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy dunyoda ko'plab mamlakatlarda budget tanqisligini qoplash va turli dasturlarni moliyalashtirish uchun qarz

mablag'larini jalb etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu amaliyot davlat qarzining o'sishiga sezilarli darajada hissa qo'shishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki, qarz hajmi va dinamikasi iqtisodiy tizimning barqarorligi, rivojlanish darajasi va davlatning moliyaviy xavfsizligiga bevosita ta'sir qiladi. Davlat qarzi — bu mamlakatning jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda boshqa xalqaro huquq subyektlari oldidagi qarz majburiyatlari bo'lib, unga hukumat tomonidan berilgan davlat kafolatlari bo'yicha majburiyatlar ham kiradi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, davlat qarzi darajasi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. 2021–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi va ichki davlat qarzining YAIMga nisbatan ulushi (foizda) [3]

2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi 64,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) nisbatan 55,7 foizga teng bo'ldi. Shundan davlat tashqi qarzi hajmi 33,9 mlrd. dollarni (YAIMga nisbatan 29,5 foiz), korporativ tashqi qarz esa 30,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining Tashqi Buxgalteriya Qo'llanmasi (6-son TBQ) talablariga muvofiq, davlat tashqi qarzi tarkibiga hisoblangan, biroq hali to'lanmagan foiz to'lovlari ham kiritiladi.

Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tomonidan chop etilgan "Debt Sustainability Framework" nashrga muvofiq, rivojlanayotgan mamlakatlarda YAIMga nisbatan tashqi qarzning 30 foiz darajasida bo'lishi "past risk" deb baholanadi, 40 foiz esa "o'rta risk" chegarasi hisoblanadi.

Mazkur ko'rsatkich mamlakat investitsion xavfsizligi darajasining muhim mezonlaridan biri bo'lib, ushbu me'yordan oshib ketish investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, qarz yukining ortishi davlat budjetiga bosimni kuchaytiradi, chunki xizmat ko'rsatish xarajatlari (foiz to'lovlari, asosiy qarzni qaytarish) ko'payadi. Bu esa ijtimoiy sohalar yoki investitsion loyihalarga ajratiladigan mablag'larning qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, "Debt Sustainability Framework"da tavsiya etilgan chegaralar – 30 foiz (past xavf), 40 foiz (o'rta xavf) – mamlakatlar uchun moliyaviy barqarorlikni saqlashda muhim strategik ko'rsatkich hisoblanadi. Aks holda mamlakatda investitsion jozibadorlik pasayadi, inflyatsiya sur'atlari ortadi hamda suveren kredit reytingi yomonlashadi. Bu ko'rsatkichlar asosida davlatlar qarz siyosatini rejalashtiradi va qarz yukini xavfsiz darajada ushlab turadi.

Xorijiy ekspertlar fikricha, davlat tashqi qarzining YAIMga nisbatan ulushi mamlakatning investitsion jozibadorlik darajasini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri sanaladi. Bu ko'rsatkichning me'yoriy darajaga yaqinlashuvi investitsion xavfning ortayotganidan darak beradi. Natijada mamlakatga zarur xorijiy investitsiyalar oqimi cheklanib, iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlatning umumiy qarzi tarkibidagi davlat tashqi va ichki qarzдорligini nisbatini ko'radigan bo'lsak, so'nggi yillarda ichki

qarzдорlikni o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat rivojlangan mamlakatlarga xos hisoblanadi. YAIMga nisbatan tashqi qarzning ulushi 30 foizdan oshmasligi kerak va davlat ichki qarzдорligi ham YAIM ga nisbatan 30 foizdan oshmasligi kerak, jami bo'lib, davlat umumiy qarzi YAIM ga nisbatan 60 foizdan oshmasligi kerak. Mamlakatimizda ushbu ko'rsatkich 2024-yilda tashqi qarzдорlik bo'yicha YAIMning 29,3 foizini, ichki qarzдорlik bo'yicha esa 5,6 foizini tashkil etgan. Bu esa xalqaro mezonlarga ko'ra, davlatning qarz yuki nisbatan barqaror va nazorat ostida ekanligini ko'rsatadi.

Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta risklarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarz jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Xususan, yillik davlat g'aznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi 2018-yildagi 597 mlrd. so'mdan 2023-yilda 25 trln. so'mga yetkazildi, obligatsiyalarning muomala davri 10 yilgacha uzaytirildi.

Yuqoridagi tahliliy natijalarda O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzining o'sib borish tendensiyalarini ko'rib chiqdik. Umumiy tashqi qarz tarkibida korporativ sektorga tegishli tashqi qarz ham mavjud bo'lib, quyida mazkur korporativ tashqi qarz elementlari alohida tahlilini keltiramiz.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2021-2024 yillarda umumiy tashqi qarzda korporativ tashqi qarzning ulushi [3]

Davr	Umumiy tashqi qarzda korporativ tashqi qarzning ulushi (foizda)	Korporativ tashqi qarz hajmi (mlrd. dollarda)
2021-yil	59,8	15,7
2022-yil	60,6	17,7
2023-yil	69,2	23,6
2024-yil	77,1	30,2


Jadvalda 2021-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzida korporativ tashqi qarzning ulushi va uning

hajmi keltirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, korporativ tashqi qarzning umumiy tashqi qarzdagil ulushi so'nggi to'rt yil davomida

sezilarli darajada o'sib, 2021-yildagi 59,8 foizdan 2024-yilda 77,1 foizgacha yetgan. Shuningdek, korporativ tashqi qarz hajmi 2024-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb 2

barobarga oshib 30,2 mlrd. dollarga yetgan. Bu holat O'zbekiston korporativ sektorining tashqi moliyalashtirish manbalariga bo'lgan ehtiyojining oshganini ko'rsatadi.

■ *Xalqaro moliya institutlari (XMI)* ■ *Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari* ■ *Investorlar*



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2022–2024-yillarda davlat tashqi qarzining qarz beruvchilar kesimidagi tahlili (foizda) [3]

XVJ tomonidan 2024-yil iyul oyida e'lon qilingan davlat qarzi barqarorligi hisobotida O'zbekiston Respublikasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish salohiyati yuqori darajada, davlat qarzi va mamlakatning umumiy tashqi qarzi bilan bog'liq xatarlar past darajada baholangan.

Davlat tashqi qarzining salmoqli qismi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga jalb qilingan bo'lib, ushbu qarzдорlikka xizmat ko'rsatish loyihalarni amalga oshirishdan tushgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Mazkur mablag'larning aksariyat qismi uzoq muddat hamda imtiyozli foiz stavkalarida jalb etilgan. O'zbekiston Respublikasi Hukumati xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan qarz mablag'larini jalb qilishda konservativ yondashuvga va xatarlarni boshqarish tamoyillariga amal qilmoqda.

2018-yilda O'zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingi olinib, bu orqali suveren xalqaro obligatsiyalarni jahon moliya bozorlarida joylashtirish imkoniyati yuzaga keldi [2]. Xususan, 2019-yilning 13-fevralida umumiy hajmi 1 mlrd. dollar miqdorida 5 va 10 yil muddatlarda respublikaning ilk suveren xalqaro obligatsiyalari London qimmatbaho

qog'ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi. Shaffof bozor mexanizmlari asosida 5 va 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari mos ravishda 4,750 va 5,375 darajasida belgilandi. Shuningdek, mazkur obligatsiyalarni xarid qilishga bo'lgan talab 8,7 mlrd. dollargacha yetib, bu xalqaro investorlarning O'zbekiston Respublikasining istiqboliga bo'lgan yuqori ishonchini ifodalaydi.

Davlat korxonalari va banklari o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablag'lar jalb qilishga o'tkazilmoqda. Davlat korxonalari hamda banklari tomonidan xalqaro me'yorlar va talablar asosida o'z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta'minlash, "Fitch", "S&P" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019–2024-yillarda "O'z sanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ, "Ipoteka-bank" ATIB, "UzAvto Motors" AJ va "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb 3,2 mlrd AQSH dollarlik mablag'lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilindi. 1-jadvalda davlat tashqi qarzining tarmoqlar

kesimida sarflanishiga oid ma'lumotlarni keltiramiz. Tahlil qilinayotgan davrda davlat tashqi qarzining 35-45 foizi davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun sarflanganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda ushbu xarajatlar jami davlat tashqi qarzining 33 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, ushbu xarajatlar 45 foizga yetgan. Shu bilan birga, yoqilg'i-energetika va neft-gaz sanoatining davlat tashqi qarzidagi ulushi

kamaygan, bunda neft va gaz sektori 11 foizdan 5 foizgacha pasaygan.

Sog'liqni saqlash, ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa ijtimoiy sektorlar davlat tashqi qarzida barqaror 7-8 foiz atrofida ulushga ega bo'lib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga investitsiyalar jalb qilish tendensiyasining davom etayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2022-2024-yillarda davlat tashqi qarzining tarmoqlar kesimida taqsimlanishi [3]

Tarmoqlar nomi	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Mln. doll	Jamiga nisbatan foizda	Mln. doll	Jamiga nisbatan foizda	Mln. doll	Jamiga nisbatan foizda
Davlat tashqi qarzi, jami, shu jumladan:	25 914	100%	29 639	100%	33 726	100%
Budjet taqchilligini qoplash	8 647	33%	11 738	40%	15 291	45%
Yoqilg'i-energetika sanoati	5 822	22%	5 791	20%	5 748	17%
Neft va gaz	2 754	11%	2 060	7%	1 746	5%
Elektroenergetika	2 987	12%	3 427	12%	3 783	11%
Ko'mir sanoati	81	0%	304	1%	219	1%
Transport va transport infratuzilmasi	2 509	10%	2 771	9%	2 852	8%
Temir yo'llar	1 142	4%	1 196	4%	1 275	4%
Avtomobil yo'llari	812	3%	1 114	4%	1 208	4%
Havo transporti	555	2%	461	2%	369	1%
Qishloq va suv xo'jaligi	2 537	10%	2 657	9%	2 918	9%
Qishloq xo'jaligi	1 808	7%	1 870	6%	2 069	6%
Suv xo'jaligi	730	3%	787	3%	849	3%
Uy-joy kommunal xo'jaligi	2 299	9%	2 610	9%	2 856	8%
Uy-joy qurilishi	1 353	5%	1 364	5%	1 318	4%
Ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya	763	3%	847	3%	938	3%
Shahar va qishloqlar infratuzilmasini yaxshilash	81	0%	264	1%	440	1%
Chiqindilarni qayta ishlash	75	0%	85	0%	86	0%
Issiqlik ta'minoti	27	0%	50	0%	74	0%
Tadbirkorlik faoliyati va sanoat ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash	1 066	4%	1 078	4%	841	2%
Kimyo sanoati	1 026	4%	896	3%	764	2%
Sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa sektorlar	2 008	8%	2 098	7%	2 456	7%

"2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonunga muvofiq, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi nomidan va kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yangi yillik bitimlarning maksimal hajmi 5,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Buning 3,0 mlrd. dollari

davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun, 2,5 mlrd. dollari esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, davlat nomidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlarning sof hajmi 30 trln. so'mga teng bo'ladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida imzolanadigan yangi loyihalarining

qiymati esa 6,5 mlrd. AQSh dollardan oshmasligi belgilangan.

Mazkur me'yoriy hujjat asosida 2025-yil uchun davlat moliyalashtirish strategiyasi aniq belgilangan bo'lib, tashqi qarzlar va investitsiyalarni jalb etish hamda davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Xususan, budget taqchilligini moliyalashtirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar iqtisodiy barqarorlikni saqlash hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali yangi loyihalarni moliyalashtirishda ehtiyotkorlik va samaradorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu choralar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va o'sishini kafolatlashda muhim omil bo'lib, davlat qarzining samarali boshqarilishi va budget taqchilligining nazorat ostida ushlab

turilishi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonlarda tashqi qarzlarni ehtiyotkorlik bilan jalb qilish va ularning maqsadli sarflanishi muhim ahamiyatga ega.

Tashqi qarzlarning o'sishi inflyatsiya va iqtisodiy noaniqliklarni kuchaytirishi mumkinligi sababli, qarz yuki va fiskal siyosatni muvozanatda ushlab turish zarur. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi samarali nazorat mexanizmlari hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining shaffofligi moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ichki kapital bozorini rivojlantirish, jumladan ichki qarz orqali budget defitsitini qoplash, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vositadir. Bu, o'z navbatida, davlat moliyaviy mustaqilligini oshirish va investitsiya jozibadorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat moliyaviy siyosatining huquqiy asoslarini kuchaytirish, fiskal intizomni ta'minlash va yuqori samarali investitsiya loyihalariga e'tibor qaratish zarur. Bunday yondashuv O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"di PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida" gi PQ-4258-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). Budjetnoma. 2025–2027-yillar [PDF]. https://api.mf.uz/media/filestore/Budjetnoma_2025_BmO2cnx.pdf
4. Охапкин В.П. О роли финансовой безопасности банковской системы в экономической безопасности государства: методологические основы решения// Актуальные проблемы экономики и права. – 2012г.
5. Dewatripont M., Tirole J. The Prudential Regulation of Banks. — Cambridge, MA: MIT Press, 1994.
6. Financial Technology and National Security Elizabeth Rosenberg, Peter E. Harrell, Gary M. Shiffman and Sam Dorshimer Jun. 1, 2019 4 pages Published by: [Center for a New American Security](https://www.jstor.org/stable/resrep20404) Stable URL: <https://www.jstor.org/stable/resrep20404>
7. Вечканов Г.С. Экономическая безопасность. Учебник для вузов. – СПб: Питер, 2007. – стр.384.: ил. – (Серия "Учебник для вузов")

8. Каранина Е.В. Финансовая безопасность (на уровне государства, региона, организации, личности) - Монография.- Киров: ФГБОУ ВО "ВятГУ" 2015 г, 239 стр.

9. Zenchenko, SV; Rubtsova, LN; Loshakov, KV; Radyukova, YU. Regional financial security as a basis for sustainable economic development of the region // Proceedings of the volgograd state university international scientific conference: competitive, sustainable and safe development of the regional economy (CSSDRE 2019). - 2019. - Seriya knig: AEBMR-Advances in Economics Business and Management Research. - Tom: 83. - Str.: 432-435 <https://www.atlantispress.com/proceedings/cssdre-19/125909752>

10. Kushch, E; Takhumova, O; Drannikova, E; Alehina, E; Malinina, O. MINIMIZATION OF RISKS AND THREATS IN THE SYSTEM OF ECONOMIC SECURITY AT THE MESO-LEVEL // INDO AMERICAN JOURNAL OF PHARMACEUTICAL SCIENCES. - 2019. - Tom: 6. - Vypusk: 3. - Str.: 5741-5746 <file:///C:/Users/hp/Downloads/153.0-Manuscript%20Kushch-converted.pdf>

11. <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sahifasi.

12. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sahifasi.